

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsuloti turi va nomi	Mikroqarz - "Online Imkoniyat"
Qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 21 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan rasmiy daromadga ega jismoniy shaxs.
Mikroqarz valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Mikroqarz miqdori	2.0 mln.so'mdan - 100.0 mln.so'mgacha
Mikroqarz maqsadi	Maqsadsiz
Mikroqarz muddati	Imtiyozli davrsiz, 1 oydan 36 oy muddatgacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining bank kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Foiz stavkasi	Yillik 27% dan 38% gacha (Skoring tahlili natijasiga ko'ra aniqlanadi. Kredit tarixi va qarz yuki ko'rsatkichi ijobiyligiga qarab foiz stavkasi minimallasadi.)
Muddati o'tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foiz stavkasi	Foiz stavkasining 1,5 barobarida
Mikroqarz ta'minoti	Ta'minot talab etilmaydi.
Mikroqarz qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.
Qo'shimcha shartlar	• Qarz oluvchi oxirgi 6 oy davomida doimiy va rasmiy daromadga ega bo'lishi lozim; • Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadining 50% miqdori olinayotgan mikroqarz bo'yicha eng yuqori oylik to'lov bilan mavjud kreditlar/qarzlilar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorining yig'indisini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim; • Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim; • Mikroqarzning 125 foizi miqdorida qarz oluvchini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha sug'urta tashkilotining sug'urta polisi (Sug'urta bilan bog'liq barcha harajatlar bank tomonidan qoplanadi); • Joriy muddati o'tgan kredit va foiz qarzdorligi mavjud shaxslarga mikroqarz ajratilmaydi; • Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorligi mavjud fuqarolarga onlayn mikroqarz ajratilmaydi (Majburiy ijro byurosi).